

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 163 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOIIY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O'RNI.....	128
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	



AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI



Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Marketing” kafedrasida doktoranti

E-mail: mukhabbatergasheva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada respublikamizda avtotransport xizmatlari bozorida, jumladan, transport–ekspeditsiya xizmatlarida uchraydigan muammolar tahlil etilib, ularni hal etish uchun ushbu bozorning samarali faoliyatini tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqishga e’tibor qaratilgan. Transport–ekspeditsiya xizmatlariga bo’lgan munosabatni o’zgartirish uchun taklif etilayotgan konsepsiyada ham nazariy, ham amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: avtotransport xizmatlari, transport–ekspeditsiya, xizmatlar ko’rsatish samaradorligi, avtotransport xizmatlarini boshqarish chizmasi, avtotransport xizmatlari sohalari, transport–ekspeditsiya xizmatlarining samaradorligi.

Abstract: The article examined the existing problems of motor transport services, including transport and forwarding services, they analyze them, on the basis of which the concept of organizing the effective activities of motor transport enterprises was proposed. The proposed concept theoretically and practically substantiated changes in the approaches to transport and forwarding activities, which produces the efficiency of the provided motor transport services to both offers and the population as a whole.

Key words: auto transport services, transport - expedition, efficiency of services, management of auto transport services, field of auto transport services, efficiency of transport and expeditionary services.

Аннотация: В статье были рассмотрены существующие проблемы автотранспортных услуг, в том числе, транспортно– экспедиторских услуг, произведен их анализ, на основе чего предложена концепция организации эффективной деятельности автотранспортных предприятий. В предложенной концепции теоретически и практически обоснованы изменения подходов к транспортно – экспедиторской деятельности, что позволит повысить эффективность оказываемых автотранспортных услуг как предприятием, так и населению в целом.

Ключевые слова: автотранспортные услуги, транспортная – экспедиция, эффективность оказания услуг, схема управления автотранспортными услугами, сфера автотранспортных услуг, эффективности транспортно – экспедиционных услуг.

KIRISH

O’zbekiston Respublikasini har tomonlama modernizatsiya qilishga qaratilgan “O’zbekiston – 2030” strategiyasining 53-bandida mamlakatning global transport-logistika tarmoqlariga chuqur integratsiyalashuvi hamda milliy transport tizimining salohiyatini oshirish bo’yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur yo’nalishdagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish natijasida yo’lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini uch baravar oshirish maqsadi ko’zda tutilgan [1]. Ushbu maqsad mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, hududlararo va xalqaro iqtisodiy aloqalarni jadallashtirish, shuningdek, transport xizmatlari sohasida yangi innovatsion yechimlarni joriy etish zaruratini taqozo etadi.

Shu munosabat bilan, respublika miqyosida avtotransport xizmatlari bozorini yanada takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu jarayonda transport-ekspeditsiya xizmatlarining iqtisodiy



mohiyati, ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi o'rni hamda bozor infratuzilmasidagi ahamiyatini chuqur o'rganish zarurdir. Mazkur sohada samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, xalqaro tajriba asosida innovatsion marketing yondashuvlarini tatbiq etish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotda transport-ekspeditsiya xizmatlari tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari hamda ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, soha rivojlanishining hozirgi holati, mavjud muammolar va istiqboldagi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur ilmiy maqola muallif tomonidan 20 yildan ortiq davom etgan ilmiy izlanishlar va tahliliy kuzatuvlar natijasida to'plangan tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, u transport-ekspeditsiya xizmatlari bozorida marketing konsepsiyasini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamiz va xorijiy olimlar hamda amaliyotchilar ishlarida avtotransport xizmatlari bozori, uni tashkil etish, korxona, tashkilot va aholining mavjud ehtiyojlarini qondirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, Abdullaev B.I. shahar avtobus yo'nalishlarida transport xizmati sifati ko'rsatkichlarini takomillashtirish mavzusida PhD tadqiqotini amalga oshirgan [2]. Jamoat transporti faoliyatini tashkil etishda marketing tadqiqotlari va vositalaridan foydalanish muammolarini hal etishda Berdiyev T.A. [3], G'iyosiddinov B.B. [4], Iribekova M.N. [5] tomonidan amalga oshirilgan nazariy va amaliy qarashlarni keltirish mumkin.

Temir yo'l sohasida yuklarni tashish va undagi logistika tizimini shakllantirish masalalariga Kamalova E.A.ning ilmiy ishlanmalari bag'ishlangan bo'lsa [6], xizmat ko'rsatish sohasidagi xususiyatlar, raqobat muhitida transport korxonalari salohiyatidan to'liqroq foydalanish masalalari Nabieva N.M. [7] va Yusupxodjaeva G.B. [8] dissertatsiya ishlarida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda mualliflar xizmat ko'rsatishning jamiyatdagi o'rni tobora ortib borayotganligini, ishlab chiqarish korxonalari bilan raqobatlashish salohiyatidan samarali foydalanish zarurligiga e'tibor qaratganlar.

Avtotransport korxonalari faoliyatini boshqarish, ularning samaradorligini oshirishda marketing va menejment tizimlaridan unumli foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishda ustozimiz professor Ikramov M.A. tomonidan olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar bizning izlanishlarimizga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [9,10]. Uning ilmiy ishlanmalarida avtotransport korxonalarining yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatayotgan xizmatlari mavqeining ortib borayotgani, biroq tashish vositalarining eskirishi, logistik tizimni takomillashtirish ehtiyoji yuqoriligi, infratuzilmalarning zamonaviy talablarga javob bermasligi kabi masalalar chuqur tahlil qilingan. Ushbu holatlar bizning ilmiy tadqiqotlarimizni yanada chuqurlashtirishga turtki bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi kunda avtotransport korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan xizmatlar sifati zamon talablariga, ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlariga to'liq javob bera olmayapti. Natijada transport-ekspeditsiya xizmatlarining mohiyati va mazmuni o'zgarib bormoqda. Mazkur maqolada muallif tomonidan mavjud muammoni hal etish borasidagi mualliflik yondashuvi taklif etilib, uning konsepsiyasiga ilmiy munosabat bildiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda transport-logistika xizmatlari bozori hamda transport infratuzilmasini takomillashtirish, korxonalar va aholiga avtotransport xizmatlarining nafaqat miqdorini, balki sifati ham yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lami yildan-yilga kengayib bormoqda. Prezidentimizning 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori aynan ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yaqqol ifodalaydi [11].

Mazkur qaror asosida O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Uning asosiy maqsadi – iqtisodiyot va biznes subyektlarining yuqori sifatli yuk tashish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, mamlakatning tranzit salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish hamda istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirishdan iboratdir [12].

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda transport xizmatlari bozorining umumiy hajmi o'sishining asosiy omili 8,6 foizni tashkil etgan bo'lib, bu 1,4 punkt o'sish sur'atiga hissa qo'shgan [13].

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, transport xizmatlari hajmi va ularning o'sish sur'atlari yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Avtotransport sohasi tomonidan amalga oshirilayotgan xizmatlar hajmi esa umumiy transport xizmatlari hajmiga nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichni tashkil etmoqda (111,9 foiz 108,6 foizga nisbatan).

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda transport-logistika tizimi modernizatsiyasi, avtomobil yo'llari infratuzilmasini kengaytirish va logistika markazlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar o'z samarasini




bermoqda. Shu bilan birga, transport-ekspeditsiya xizmatlari segmentida raqobatni kuchaytirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish hamda xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish bozorning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

1-jadval. Xizmatlar sohasining, jumladan, transport xizmatlarining o'sishi (2024-yil yanvar-sentyabr holatiga ko'ra)

Xizmatlar turlari nomi	Xizmat hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
	2023	2024	
Xizmatlar, jami	448484,4	564777,7	100,0
Transport xizmatlari	75899,0	97091,9	17,2
Jumladan, avtotransport xizmatlari	36364,0	46370,2	8,2

Agar so'nggi besh yil mobaynidagi avtotransport xizmatlari hajmini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yilga nisbatan ma'lum darajada pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2024-yil natijalari ijobiy o'zgarishlarni namoyon qilmoqda (1-rasmga qarang). Bu esa sohada olib borilayotgan islohotlar, infratuzilma modernizatsiyasi va transport-logistika tizimining raqamlashtirilishi samaradorligini tasdiqlaydi.




1-rasm. Avtotransport xizmatlarining o'sish sur'atlari

1-rasm. 2020–2024-yillarda avtotransport xizmatlari hajmining o'sish dinamikasi

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarda ham bozor mexanizmi takomillashgan sari avtotransport xizmatlarining ulushi tobora ortib bormoqda. Bizning respublikamizda ham ushbu tendensiyaning kuzatish mumkin. Masalan, 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda COVID-19 pandemiyasi davrida oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmonlarni aholiga yetkazib berish, ayniqsa, vodiy hududlaridan Toshkent va boshqa viloyatlarga sabzavot hamda mevalarni tashish jarayonlari sezilarli darajada faollashgan. Bu esa avtotransport xizmatlari hajmining keskin o'sishiga olib kelgan.

Hozirgi kunda avtotransport xizmatlari bozorini boshqarishda quyida 2-rasmda keltirilgan chizma asosida yondashuvni qo'llash zarur. Ushbu chizmada ko'rsatilganidek, avtotransport xizmatlari bozorini samarali tashkil etish uchun narx, pul-kredit, soliq siyosati hamda boshqa iqtisodiy va tashkiliy omillar o'zaro uzviy bog'liq holda harakat qiladi. Bu omillar birgalikda bozor mexanizmini muvozanatli rivojlantirish, raqobat muhitini mustahkamlash va xizmatlar sifati hamda hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmatlar hajmining, jumladan, avtotransport vositalari orqali amalga oshirilayotgan faoliyatning yil sayin yaxshilanib borayotgani ijobiy natijadir. Shu bilan birga, so'nggi yillarda transport-ekspeditsiya xizmatlariga bo'lgan e'tiborning nisbatan susaygani, bu segmentdagi innovatsion yondashuvlar va boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish zarurati mavjudligini ham qayd etish mumkin. Shu bois, avtotransport xizmatlari bozorida marketing konsepsiyalarini takomillashtirish va ekspeditsiya xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaralishi lozim.



2-rasm. Avtotransport xizmatlari bozorini boshqarish chizmasi

Birinchi navbatda, bizning fikrimizcha, transport xizmatlari va transport-ekspeditsiya xizmatlari bir asosga ega bo'lsa-da, mazmunan bir-biridan farq qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 9-sentabrdagi qarorida "Transport-ekspeditsiya xizmati — yukni jo'natish va qabul qilib olish jarayonini tashkil etish, shuningdek, transport-ekspeditsiya shartnomasiga muvofiq yuk tashish bilan bog'liq boshqa ish turlarini bajarish bilan bog'liq transport xizmat turi" deb ta'rif berilgan [14].

Boshqacha qilib aytganda, yuk tashish jarayoni "A" manzildan "B" manzilga yetkazib berishni anglatadi, transport-ekspeditsiya xizmatlari esa buyurtmachining (korxona, tashkilot yoki aholi) barcha ehtiyojlarini qondiruvchi xizmatlar majmuini o'z ichiga oladi.

Transport-ekspeditsiya xizmatlari tarkibiga quyidagi faoliyat turlari kiradi:

- yukni jo'natish joyidan belgilangan manzilgacha tashishni tashkil etish;
- buyurtmachining shart-sharoitlariga muvofiq yuk tashishning maqbul yo'nalishini tanlash;
- yuk jo'natuvchining ombori (yoki terminali)dan yuklarni qabul qilib olish, yuk qabul qiluvchining ombori (terminali)ga yetkazish hamda ularni topshirish;
- yuklarni o'rash, joylash (qadoqlash), markalash, bog'lash, navlarga ajratish va saqlash;
- yukni sug'urtalash;
- yukning jo'natilganligi, hozirgi holati va manzilga yetib kelganligi (yuk harakati dispazitsiyasi) haqida axborot berish;
- boshqa ekspeditorlar xizmatlari, tariflar, ish tartibi va boshqa tezkor ma'lumotlarni taqdim etish;
- transport-ekspeditsiya faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berish;
- bojxona tartibotlarini bajarish;
- yuk tashish bo'yicha tashuvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- yuk tashish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, yuqorida tilga olingan Vazirlar Mahkamasining 2000-yildagi qaroridan tashqari, transport-ekspeditsiya xizmatlariga oid munosabatlar biror normativ-huquqiy hujjatda batafsil yoritilmagan. 2001-yilda respublikamizda Avtotransport vazirligi tugatilganidan so'ng, avtotransport korxonalari xususiylashtirildi va davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy hamda tashkiliy yordam mexanizmlari deyarli yo'qoldi. Natijada, faqat tijorat banklaridan kredit hisobiga o'zining transport vositalari va infratuzilmasini saqlab qolgan korxonalar faoliyatini davom ettira oldi, ko'plab tashkilotlar esa inqirozga yuz tutdi.

2021-yilda respublikamizda "Transport to'g'risida"gi yangi qonun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, unda transport-ekspeditsiya xizmatlariga alohida e'tibor qaratilmagani achinarli holatdir. Ayniqsa, Toshkent shahrida qurilish hajmining keskin oshishi, aholining ko'chishi va yuk tashishga bo'lgan talabning ortishi fonida bu yo'nalish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, 2020-yil pandemiya davrida yetkazib berish xizmatlarining ahamiyati butun jamiyat tomonidan chuqur anglab yetildi. Biroq transport-ekspeditsiya xizmatlarining asosiy maqsadi — yukni jo'natish va qabul qilish jarayonini tashkil etish, shuningdek, transport-ekspeditsiya shartnomasiga muvofiq yuk tashish bilan bog'liq boshqa ish turlarini bajarish amalda to'liq shakllanmaganligicha qolmoqda. Buning sabablari



— normativ-huquqiy hujjatlarning eskirganligi, axborotni qayta ishlash va raqamlashtirish texnologiyalarining sust joriy etilishi, hamda sohada innovatsion boshqaruv tizimlarining yetishmasligi bilan bog'liq.

Natijada, avtotransport xizmatlari bozorida tizimli samarasizlik yuzaga kelmoqda. Shu bois, mavjud qonunchilikni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar asosida transport-ekspeditsiya xizmatlarini qayta tashkil etish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish bozor ishtirokchilarining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda hozirgi kunga kelib transport-ekspeditsiya xizmatlariga oid iqtisodiy kategoriya deyarli ishlatilmay qo'yilgan. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ekspeditor" (lotincha expeditor – "bormoq, jo'natmoq") so'ziga "korxona, muassasa va shunga o'xshash tashkilotlarda mol, tovar, gazeta-jurnal, xat-xabarlarini tegishli joylarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi xodim" deb izoh berilgan. "Ekspeditsiya" esa "tartibga solish, safar, sayohat, yubormoq, jo'natmoq" ma'nolarida talqin qilingan [16, 26–27-betlar].

Boshqacha qilib aytganda, korxonalar, tadbirkorlik subyektlari va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda transport-ekspeditsiya xizmatlarini chuqurroq tahlil qilish, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda umumiy xizmatlar ulushidagi miqdorini oshirish muhimdir. Shu bilan birga, transport-ekspeditsiya faoliyati bilan shug'ullanayotgan avtotransport korxonalarini moliyaviy, tashkiliy va institutsional jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur.

Bunday mexanizm nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki ijtimoiy va ekologik vazifalarni hal etishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki transport-ekspeditsiya xizmatlari logistik tizimning uzviy bo'g'ini sifatida ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, resurslardan oqilona foydalanish, tashish xarajatlarini kamaytirish hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu xizmatlar tizimini rivojlantirish O'zbekistonning transport-logistika sohasidagi strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar, muassasalar va aholining, ayniqsa, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik vakillarining avtotransport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojidan to'liqroq foydalanish uchun turli mulk shakli egalari manfaatini va javobgarligini rag'batlantiradigan mexanizmni ishlab chiqish zarur. Shu munosabat bilan, 2021-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Transport to'g'risida"gi Qonuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Transport to'g'risida"gi Qonunda belgilangan transportga oid besh tamoyil – qonuniylik, xavfsizlik, ekologik tozalik, transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, ochiqlik va shaffoflik –ni raqamlashtirish talablari bilan uyg'unlashtirish zarur. Shu asosda iste'molchi bilan aks aloqani joriy etish, ya'ni ularning xizmatlardan qoniqish darajasini baholash tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Amalda qo'llanilayotgan GPS va GLONASS tizimlaridan aholiga hamda tadbirkorlarga transport-ekspeditsiya xizmatlarini amalga oshirishda kengroq va samaraliroq foydalanish mexanizmini yaratish lozim. Bu borada "Yandex" kabi axborot-infratuzilmaviy tizimlarni milliy amaliyotga jalb etish foydali bo'ladi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar faoliyati natijalari Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlarida faqat umumiy ko'rsatkichlar tarkibida emas, balki alohida statistik qator sifatida ajratib ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Avtotransport xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish maqsadida ushbu sohada tahsil olayotgan menejer, marketolog va iqtisodchi kadrlarning o'quv jarayoniga transport-ekspeditsiya xizmatlari iqtisodiy kategoriyasini alohida o'quv fani sifatida kiritish lozim, deb hisoblaymiz. Bu kelgusida soha mutaxassislarining nazariy va amaliy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Avtotransport, jumladan transport-ekspeditsiya xizmatlarini amalga oshirish va ularning samaradorligini baholash uchun maxsus konsepsiya, mezonlar hamda boshqa talablar asosida hisob-kitob algoritmini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu algoritim xizmat sifatini baholash, xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida alohida ekspeditsiya bo'limi tashkil etishning samaradorligi past bo'lishi mumkinligini inobatga olgan holda, ushbu faoliyatni outsorsing asosida amalga oshirish yoki Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzurida "Maslahat markazlari"ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday markazlar transport-ekspeditsiya xizmatlari bozorida ilmiy-uslubiy, amaliy va konsalting ko'makni ta'minlab, sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Стратегия-2030», Lex.uz /docs / 6600413. ПФ № 158, 11.09.2023й
2. Абдуллаев Б.И. Шаҳар автобус йўналишларида транспорт хизмати сифат кўрсаткичларини такомиллаштириш. – PhD автореферати, Т.: ТАЙЛҚДИ, 2019 й.



3. Бердиёров Т.А. Жамоат транспорти фаолиятида маркетинг тадқиқотларидан фойдаланишни такомиллаштириш. – PhD автореферати, Т., ТДИУ, 2021 й
4. Гиёсиддинов Б.Б. Жамоат транспортининг жозибардорлигини оширишда маркетинг воситаларидан фойдаланишни такомиллаштириш. - PhD автореф., – Т.: ТДИУ, 2024 й.
5. Ирисбекова М.Н. Маркетинг тамойиллари асосида транспорт хизматлари бозорини оптималлаштириш. - DSc автореф., Т.: ТАИИ,
6. 2017 й.
7. Камалова Э.А. Юklarни ташишнинг логистик бошқарувини такомиллаштириш. - PhD автореф. - Т.: ТДИУ, 2019 й.
8. Набиева Н.М. Хизмат кўрсатиш корхоналарини ривожлантиришнинг маркетинг стратегиясини ишлаб чиқиш. – PhD автореф., Т.: ТДИУ,
9. 2021 й.
10. Юсупходжаева Г.Б. Автотранспорт корхоналари рақобат салоҳиятидан самарали фойдаланиш. PhD автореф., Т.: ТДТУ, 2020 й.
11. Икрамов М.А., Зоҳидов А.А. Автомобильно - дорожный сектор государств Центральной Азии: проблемы и перспективы развития. Монография. – Т.: изд. библиот. А.Навои, 12,5 п.л
12. Икрамов М.А. Маркетинговая стратегия Республики Узбекистан в сфере услуг. Конф. ТДИУ 2017 йил, 24 ноябрь., 281-284 бетлар.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг транспорт – логистика тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари тўғрисида» ги Қарори, ПҚ– 28 – сон, 2025 йил, 27 январь.
14. Ўзбекистон Республикасининг Транспорт – логистика тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. – Т.: 2025 й.
15. www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитасининг расмий сайти
16. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасида транспорт - экспедиторлик фаолиятини тартибга солишни такомиллаштириш тўғрисида» ги Қарори, 2000 йил 9 сентябрь, № 348.
17. Ўзбекистон Республикасининг «Трансп орт тўғрисида» ги Қонуни,
18. 2021 йил 9 август.
19. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати» 5- жилд. -Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2008 й.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
